XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-may VII-10-77-6-0-K/25 Namangan viloyati

Budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mablag‘larni iqtisod qilishni ta’minlash bo‘yicha samarasiz, past samarali xarajatlarni maqbullashtirish, maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119, 120, 126, 147-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 17-oktyabrda o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasida 2025-yil 27-fevralda o‘tkazilgan 6-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, byudjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mablag‘larni iqtisod qilishni ta’minlash bo‘yicha samarasiz, past samarali xarajatlarni maqbullashtirish, maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish hamda Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga va Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-maydagi 01/10-545-sonli taqdimnomasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining:

119-moddasiga asosan Davlat budjetining qo‘shimcha manbalari Davlat budjetining har bir darajasidagi budjetlarida alohida-alohida shakllantirilishi;

qo‘shimcha manbalar tarkibiga Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq budjetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar ham kiritilganligi;

147-moddasiga asosan bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorining 10 va undan ortiq foiz miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan amalga oshirilishi;

10 foizdan kam miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshirilishi, bundan ushbu Kodeks 145-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasnoligi;

Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchidan boshqa budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni o‘tkazish hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar so‘roviga ko‘ra tegishli hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi, Budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mablag‘larni iqtisod qilishni ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 17-oktyabrda o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasida 2025-yil 27-fevralda o‘tkazilgan 6-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Hisob palatasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 29-yanvardagi qo‘shma qarorlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 57-2-2280-sonli ko‘rsatma xati, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Namangan viloyati boshqarmasining 2025-yil 18-fevraldagi 23-5/259-sonli taqdimnomasi hamda budjet tashkilotlarining murojaatlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasiga asosan, Namangan viloyati viloyat mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarning 2025-yil uchun xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini rejalashtirishda budjet intizomiga rioya etilishi yuzasidan o‘tkazilgan tahliliy o‘rganishlarda aniqlangan samarasiz hamda past samarali xarajatlar 1-ilovaga muvofiq maqbullashtirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan 2-ilovaga muvofiq 127 348 850,0 (bir yuz yigirma yetti milliard uch yuz qirq sakkiz million sakkiz yuz ellik) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

5. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-sonli qarorining:

3-ilovasidagi Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasiga 3-ilovaga asosan;

5-ilovasidagi Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

6. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish hamda belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

7. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat

boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

8.Ushbu qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 28-maydagi
VII-10-77-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2025-yil xarajatlari hisobidan maqbullashtirilgan mablag‘lar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Maqbullashtirilayotgan mablag‘ summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	-179,541.0
2	Namangan viloyati Kengash kotibiyati	-7,189.0
3	Namangan viloyati Adliya boshqarmasi	-65,638.5
4	Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Namangan viloyati xududiy boshqarmasi	-46,289.0
5	Namangan viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	-885,728.3
6	Namangan viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik boshqarmasi	-459,606.0
7	Namangan viloyat Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi	-89,067.0
8	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	-41,383,414.3
9	Namangan viloyati yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi	-11,111,385.0
10	Namangan viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	-25,230,479.0
11	Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	-56,623,697.0
12	Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish boshqarmasi	-591,432.0
13	Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi	-483,063.0
14	Namangan viloyati madaniyat boshqarmasi	-18,539.0
15	Axborot kutubxona markazlari	-50.0
16	Viloyat ma’naviyat va ma’rifat markazi	-4,128.0
17	Namangan viloyati hokimligi	-202,150.0
18	Namangan viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi	-171,015.8
19	Namangan viloyat "Kabullar uyi" davlat korxonasi	-181,645.5
20	Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining Namangan viloyat boshkarmasi	-57,621.3
	Jami	**-137,791,678.6**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 28-maydagi
VII-10-77-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyatining viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar, tuman (shahar) mahalliy budjetlar nomi	Maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati hokimligi	38,954,558.0
2	Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	504,838.0
3	Qabullar uyi Davlat korxonasi	2,623,000.0
4	Namangan viloyati soliq boshqarmasi	4,759,068.0
5	Namangan viloyati Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmalari	3,345,717.0
6	Namangan viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	1,752,001.0
7	Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish boshqarmasi	699,298.0
8	Namangan viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	28,983,344.0
9	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	141,039.0
10	Namangan viloyati sport boshqarmasi	572,844.0
11	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	32,941.0
12	Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi	476,091.0
13	Madaniyat boshqarmasi	91,988.0
14	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	4,264.0
15	Namangan viloyati Adliya boshqarmasi	113,267.0
16	Namangan viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	26,930,591.0
17	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	539,498.0
18	Boshqa tashkilotlar	647,503.0
19	Namangan viloyati hokimligi (“Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK - Xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshiriladagan loyixalar bo‘yicha buyurtmachi xarajatlari uchun)	4,600,000.0

20	Namangan shaxar mahalliy budjetiga	8,767,000.0
21	Chortoq tumani mahalliy budjetiga	1,300,000.0
22	Yangiqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetiga	1,510,000.0
	JAMI	**127,348,850.0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 28-maydagi
VII-10-77-6-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati hokimligi	-28,436.0
2	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	2,360,701.0
3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	-14,000.0
4	Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi	54,239.0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	30,000.0
6	Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqarmasi	40,000.0
7	Namangan viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	-80,000.0
8	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	30,000.0
9	Yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyati boshqarmasi	-156,000.0
10	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	245,588.0
11	Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi	-45,239.0
	JAMI	**2,436,853.0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 28-maydagi
VII-10-77-6-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Tuman (shaxar) nomi	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan shaxar	1,201,930.4
2	Mingbuloq tumani	-783,127.3
3	Kosonsoy tumani	-136,452.3
4	Namangan tumani	-358,610.9
5	Pop tumani	-313,866.5
6	To‘raqo‘rg‘on tumani	-263,036.6
7	Uychi tumani	-233,891.6
8	Chortoq tumani	199,227.6
9	Yangiqo‘rg‘on tumani	-693,125.7
10	Norin tumani	-477,434.5
11	Uchqo‘rg‘on tumani	-299,023.4
12	Chust tumani	-279,442.1
JAMI		**-2,436,853.0**